

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA
ILMIY MEROSINI O‘RGANISH
MASALALARI**

№ 69

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2024-yil 7-fevral

TOSHKENT – 2024

BBK 438.15,312.1

UO'K 315,43(5T)

A 78

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / –
“Yashil yaproq nashriyoti”. – Toshkent, 2024. – 457 b.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2024-yil 7-fevral kuni o'tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan 69-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To'plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

Tahrir hay'ati:

Maqsud ASADOV, f.f.d., prof., bo'lim mudiri
Qodirjon ERGASHEV, f.f.d., yetakchi ilmiy xodim
Burobiya RAJABOVA, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sayfiddin RAFIDDINOV, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho RAHMONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim
Shahnoza RAHMONOVA, kichik ilmiy xodim
Hamida ASHUROVA, kichik imiy xodim
Elnura QURBONOVA, doktorant

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

Dilmurod ASQAROV
Nasiba JO'RAQULOVA
Mohigul MAVLONOVA
Muslima XOLBOYEVA
Sarvinoz OTAQULOVA

ISBN 978-9941-1378-1-1

©Yashil yaproq nashriyoti, 2024

13. Kayumov A. Dilkusho repetitions and spirituals. - Tashkent: Mumtoz Soz, 2011. - p. 60.
14. Orzibekov R. Genres of Uzbek lyric poetry. - Tashkent: Science, 2006. - p. 246-256.
15. Asadov M. Sokinameh: history and poetics. - Tashkent: Tafakkur, 2020. - p. 146-150.

NAVOIY LIRIKASIDA FAUNISTIK OBRAZLARNING RAMZIY TALQINI

Nafosat O‘ROQOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
[**n.y.uroqova@buxdu.uz**](mailto:n.y.uroqova@buxdu.uz)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy lirikasida uchraydigan faunistik obrazlar talqiniga daxl qilingan. G‘azal, qit‘a janrlariga mansub lirik parchalarda foydalanilgan hayvon obrazlarining xarakter xususiyatlari, ular ifodalagan ramziy ma‘nolar o‘rganilib, keng tahlilga tortilgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida, hatto, Navoiy e‘tiborini jalb etgan hamda jahon adabiyotshunosligida animalistik obrazlar sifatida talqin qilinayotgan hayvon obrazlarini alohida tadqiqot sifatida ilmiy o‘rganishga ehtiyoj sezilayotgani ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyotshunosligi, animalistika, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek mumtoz adabiyoti, Alisher Navoiy, obraz, faunistik obrazlar, ramz, tasavvuf adabiyoti, komil inson obrazi

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о интерпретации фаунистических образов, встречающихся в лирике великого мыслителя Алишера Навои. Изучаются и широко анализируются характерные особенности образов животных, используемых в лирических отрывках газельного и континентального жанров, выражаемые ими символические значения. В современной узбекской литературе даже изображения животных, привлечшие внимание Навои и

трактуемые как анималистические образы в мировом литературоведении, выделены в отдельное исследование.

Ключевые слова: мировая литература, анималистика, узбекская литература, узбекская классическая литература, Алишер Навои, образ, фаунистические образы, символ, мистическая литература, совершенный образ человека

ABSTRACT

This article is about the interpretation of faunal images found in the lyrics of the great thinker Alisher Navoi. The characteristic features of animal images used in lyrical passages of the ghazal and continental genres and the symbolic meanings they express are studied and widely analyzed. In modern Uzbek literature, even images of animals, which attracted the attention of Navoi and are interpreted as animalistic images in world literary criticism, are highlighted in a separate study.

Key words: world literature, animal studies, Uzbek literature, Uzbek classical literature, Alisher Navoi, image, faunal images, symbol, mystical literature, perfect image of a person

Jahon adabiyotshunosligi miqyosida mutafakkir Alisher Navoiyning serqirra ijod sohibi, fasohatda tengsiz alloma ekanligi bir necha asrlar davomida yuksak e'tirof etib kelinmoqda. Har gal ilm izlab uning cheksiz ummoniga sho'ng'ir ekansiz, albatta, yangidan yangi duru javohirlarni kashf etasiz. Buyuk san'atkor ijtimoiy hayotning barcha jabhasini qalamga olgan. Bu uning qomusiy olim sifatidagi mavqeyini yana-da oshirgan. So'z erkinligiga erishilgandan boshlab, Navoiy ijodini chuqurroq o'rganish hamda uni tahlil va talqin etishda yangicha yondashuvlar maydonga keldi.

Adabiy-badiiy asardagi asosiy estetik kategoriya bu – obraz. Unda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Nafaqat inson, balki borliqda mavjud barcha tirik jonzotlar obraz vazifasini o'tashi mumkin. Bu jarayonda obrazning asosi hisoblangan ramziylik xususiyati markazga chiqadi.

Faunistik obrazlar orqali ramziy ifodalash o'zbek adabiyotining barcha davrlarida faol kuzatilgan hodisa sanaladi.

Qadimdan xalq og'zaki ijodi va mumtoz lirik asarlarda insonlarning xarakter xususiyatlari, jamiyatda hukm surgan siyosiy vaziyat, oddiy xalqning umumiy ahvoli, ularning ruhiyati, kayfiyati,

alam-dardi, moddiy turmush tarzi hayvon obrazlari orqali ramziy ifodalangan.

Navoiy lirikasida ham faunistik obrazlarning yuksak namunalariga duch kelamiz. Masalan, “Istasangkim, urg‘asen davrong‘a tiyg‘i inqito...” ga‘zalining boshqa baytlaridagi kabi sakkizinchi baytida pandona ruh ustuvorlik qiladi. Bunga obraz sifatida tanlangan hayvonlarning ramziylik ifodasi orqali erishilgan:

*Besha sherin gar zabun qilsang, shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun olamda yo‘q sendek shujo [1. 11].*

Misradagi “besha” – “o‘rmon, to‘qay, changalzor” [2. 281]; “zabun” – “yengmoq, mag‘lub qilmoq, g‘olib bo‘lmoq” [2. 606]; “shujo” so‘zi esa shijoatli, jasoratli, jasur [2. 547] ma‘nolarini anglatadi.

Anglashiladiki, ushbu baytda to‘qay sherini yengmoq shijoat sanalmaydi, balki asl jasorat bu – nafs itini mag‘lub etmoqlikdir, degan badiiy g‘oya ilgari surilgan. Bu o‘rinda sher o‘z ma‘nosida qo‘llangan. Nafs iti esa ramziy ma‘no tashiydi. Mazkur birikma istiora san‘ati asosida yuzaga chiqarilgan.

Inson ma‘naviy-axloqiy tarbiyasining bosqichma-bosqich shakllanishida tasavvuf adabiyotining o‘rni beqiyos. Asrlar davomida tasavvuf ilmining ahamiyatli ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida e‘tibor berilgan hamda uning turli darajalari mavjudligi o‘rganilgan.

Nafs bu – inson ruhiyatining qashshoqlashuvi bo‘lib, bunda moddiy dunyoga mehr ortadi, o‘tkinchi ne‘matlarga moyillik kuchaya boradi. Buning oldi olinmasa, inson ma‘naviyati tanazzulga yuz tutadi, ruhiy olami qovjiraydi.

Navoiy talqiniga ko‘ra, borliq olamdagi eng kuchli yirtqich hisoblanuvchi sherni yengish juda qiyin. Ayniqsa, bu ishni inson zoti amalga oshirishi amri maholdir. Ammo shunday bir hayvon borki, u yirtqich sanalmasa-da, vahshiylardan ming karra xavfliroqdir. Bu – nafs iti. Uni yengish, mag‘lub qila olish uchun juda katta ruhiy tayyorgarlik lozim. Ma‘naviy kamolotning bir qancha bosqichlaridan muvaffaqiyatli bir yo‘sinda oshish nafs itini xorlik sari itqitishda qo‘l keladi.

Navoiy g‘azallarida faunistik obrazlar ko‘p uchraydi. Ayniqsa, it obrazi salmoqli o‘rin egallaydi va, albatta, ular turli baytlarda turlicha ma‘no qirralarini tashiydi. Shoirnig “Labingdin xasta jonkim bo‘ldi

betob...” g‘azalida mazkur hayvon vositasida pastkash kimsalar timsoli gavdalantirilgan:

*Falak boshingg‘a qoplab it terisin,
Sen oni jahldin deb kish-u sinjob.
Ajab yo‘q, odamiylik‘ni unutsang,
O‘zungni bo‘yla it charmida asrob [1.28].*

Ushbu ikki baytda itdan tashqari kish (qunduzning bir turi) hamda sinjob (silovsin) singari hayvonlar ishtirok etadi. Badiiy g‘oya mazmun-mohiyatining kitobxonga to‘la yetib borishi, anglanishi oson bo‘lishi uchun ulardan yordamchi obraz sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagi baytlar talqinidan ko‘rinadiki, lirik qahramon yorga murojaat qilib, taqdiri azal boshiga qiyin kunlarni solganda, o‘tkinchi dunyoga daxldor masalalarni bahona qilib, odamiylikdan chiqmasligini ta’kidlaydi. Buni, go‘yoki, o‘zini “it charmida asrob” (chetga olib!), ya’ni bechorasifat, xo‘rlangan kabi ko‘rsatib, insoniylik chegarasini buzishga mengzash mumkin. Navoiyning o‘z davrida ilgari surgan bunyodkorlik g‘oyalaridan biri odamiylik, insonparvarlik bo‘lgan. Bu tushunchalar ijodkor lirikasining asos tamoyili sifatida hamisha markazda bo‘rtib ko‘ringan.

Navoiyning lirik asarlarida fauna olami rang-barang. Eng go‘zal jonivor ot obrazlari bilan aloqador misollar ham talaygina. Ammo shoir mazkur timsolning boshqacha variantlarini ot variantiga qaraganda ko‘proq qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, takovar (Qilg‘il), tavsan, samand (“Shahsuvorim har qachon javlon qilur...”), raxsh (“Chobukum raxsh uza hijron, yo‘lida po‘ya qilib...”), buroq (“Jahdim andoqdur yetishgaymenmu deb vaslingg‘a bot...”) kabi otni ifodalovchi terminlardan sinonim sifatida keng foydalanilgan.

“Shahsuvorim har qachon javlon qilur...” g‘azalining 3-, 4-, 6-baytlarida ot timsoli kiritilgan. Ammo buyuk Navoiy o‘zbek tilining naqadar boy va jozibador til ekanligini isbotlash uchun uch o‘rinda uch xil nomni ko‘rsatadi. Va, albatta, bu hodisa shoirni takrorlardan ham bilvosita qutqarib qolgan.

*Ochilur ko‘nglum samandi sayridin,
G‘uncha yanglig‘kim sabodin ochilur [1. 54].*

Samand – tezyurar va chiroyli ot, saman ot. Oshiqning ma’shuqa sari intilayotgan ko‘ngli saman otga qiyoslangan. Istiora orqali ko‘ngil

talpinishlari, sog‘inch, intiqlik, visolga tashnalik holatlari yorqin namoyon bo‘lgan. Birinchi misradagi “sayridin” so‘zi kitobxonni biroz chalg‘itishi mumkin. Bunda oshiq qayerda sayr qilgan ekan, degan savol tug‘iladi. Biroq, diqqat qaratsak, undan oldingi misrada masala oydinlashtirilganligiga guvoh bo‘lamiz:

*Anga har ko‘z kim tushar, kipriklari
Xasta ko‘nglumda tikandek sanchilur [1. 54].*

Ma‘lum bo‘ladiki, oshiqning “ko‘ngul samandi” yorning jamolini tomosha qilsa, tongni shu yumush bilan qarshilasa, yanada yosharadi, kerak bo‘lsa, u shu bilan nafas oladi. Bu go‘yoki, sabohdan quyoshni qarshilagan g‘unchaga o‘xshaydi.

E‘tibor berilsa, har doim bir so‘zning unga yondosh tushunchalari mavjud bo‘ladi. Ot obrazi bilan birga eng ko‘p qo‘llanadigan, yonmayon keladigan tushuncha – shahsuvor:

*Shahsuvorimning buroqi po‘yasidin qoldi barq,
Kim aning fe‘li shitob ermish, munung rasmi sabot [1. 33].*

Misrada qo‘llangan “shahsuvor” so‘zi ot minishga mahoratli, Mars sayyorasi kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Bu o‘rinda Muhammad s.a.v.ga ishora ham bor. Binobarin, yashirin talmeh san‘ati yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Chunki ismning o‘zi yo‘q, faqatgina unga ishora bor. “Buroq” so‘zi diniy e‘tiqodga ko‘ra uchar ot sanaladi. Navoiyning lirik asarlarida juda ko‘p duch keladiganimiz “po‘ya” – o‘rtacha tezlikda yurish [1. 26]; “rasm” – qoida, udum, qonun; “barq” – chaqmoq, yashin, o‘t, olov [1.222]; “sabot” esa barqaror, mahkam turish, matonat, chidam, mustahkam [3. 12] kabi tushunchalarni beradi.

Mazmuni: yetuk chavandoz mahbubim otining yurishidan o‘tlar chaqnaydi, bu go‘yoki kimning fe‘li tez (shitob) bo‘lsa, buning qoidasi – mahkam turish, barqaror bo‘lishdir. Mohiyatan, “Jahl kelganda, aql ketadi” o‘zbek xalq maqolini yodga soluvchi mazkur falsafiy g‘oya adabiyotning bosh motivlaridan biridir.

Azaldan xalq orasida qadrlanuvchi, qolaversa, buyuk mutafakkirlarimizning doimiy e‘tiborida bo‘lib kelgan, milliy ma‘naviyatimizning bosh bo‘g‘inini tashkil etuvchi asosiy masalalardan yana biri bu – to‘g‘rilik, rostlikdir. Navoiyning qaysi janrga mansub asari bo‘lmasin, albatta, ularda rost bo‘lish, hayotga to‘g‘ri munosabatda yondashish kerakligi uqtiriladi. Zero, “Hayrat ul-abror” dostonining

o'ninchi maqolati rostlik ta'rifida bo'lib, u komil inson xususiyatlarining eng muhim omili sifatida talqin etiladi.

“Tuzlukka moyil o'lki...” qit'asida ham har bir ishda, umuman, hayotning barcha jabhasida to'g'rilik yo'lidan borganni Alloh suyishi ta'kidlanadi. Shoir qo'y-cho'pon juftligi orqali mazmun-mohiyatni yanada yorqinroq anglatadi:

*Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa, yo'qsa ming o'lingda har zamon.
Yuz sahfa bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon [1.130].*

Qit'ada inson ruhiyati, ruhoniyyati, ma'naviyati rost, ya'ni tuzluk, toza bo'lmog'i, maqsad sari intilganda unga faqatgina to'g'rilik orqali erishmog'i lozimligi g'oyasi ilgari surilgan. Yuz sahfa rost (to'g'ri, bir tekis) qalam tutgan kotib qo'lida raqamlanur, cho'pon esa ming qo'yni bir rost tayoq bilan xohlagan tarafiga sura olur. Mazkur misralarda hayvon obrazlari tarkibiga mansub qo'y timsolidan foydalanilgan. Bu o'rinda uni ham o'z ma'nosida, ham ramziy ma'noda qabul qilish mumkin. Chunki, ayrim o'rinlarda qo'y – xalq, cho'pon – shoh ma'nolarini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, faunistik obrazlar genezisi folklor va mumtoz adabiyotimiz namunalariga borib taqaladi. Jahon adabiyotshunosligida animalistik obrazlar sifatida talqin qilib o'rganilayotgan ushbu ilmiy masala xususida o'zbek adabiyotiga ham ilmiy-nazariy yangiliklar olib kirish, kerakli ilmiy xulosalar berish dolzarb vazifa ekanligi ayonlashmoqda. Adabiy-badiiy asar tarkibida inson obrazlari bilan hamisha yonma-yon turib kelayotgan hayvon obrazlarining xususiyatlari, ular ifodalaydigan ramziy ma'nolar buyuk mutafakkir Alisher Navoiy e'tiboridan chetda qolmagan. U o'z lirik asarlarida ilgari surgan g'oyalarning aniq va tushunarli bo'lishi bois hamisha faunistik obrazlarga ehtiyoj sezgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Orazin yopqach ko`zumdin. – T.: Zabarjad media, 2023. – 158 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. IV jildlik. I jild. – T.: Fan, 1983. – 656 b.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. IV jildlik. III jild. – T.: Fan, 1984. – 624 b.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. IV jildlik. II jild. – T.: Fan, 1983. – 644 b.
5. Haqqulov I. Irfon va idrok. – T.: Ma’naviyat, 98. – B. 154.
6. Uroкова Nafosat Yoriyevna. The originality and genesis of animal symbolism in poetry. Aug 18, 2023.
7. Uroкова Nafosat Yoriyevna. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Poland, Conference <https://conferencea.org>. AUGUST 20th 2023.
8. Урокова Нафосат Ёриевна. Образ змеи и его символы в поэзии. <https://wordlyknowledge.uz/>.
9. O‘roqova Nafosat Yoriyevna. Zamonaviy she’riyatda ot obrazi talqini. Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2023. №7. – B. 181-185.
10. O‘roqova Nafosat Yoriyevna. She’riyatda it obrazining ramzlashtirilishi. Ilm sarchashmalari, 2023. №10. – B. 68-71.

NAVOIY IJODIDA FANO TALQINLARI TADQIQI

Munira XUDOYOROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada Ibrohim Haqqulning fano haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: fano, faqr, o‘zlik, g‘azal, qit‘a

ANNOTATION

The article examines Ibrahim Haqqul's analysis and interpretations about "fano"

Keywords: "fano", "faqr", identity, "ghazal", short poem

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются анализ и интерпретации о фане Ибрагимом Хаккулом.

Ключевые слова: фана, ницета, идентичность, газель, короткие стихотворение.

MUNDARIJA

ALISHER NAVOIY VA MUMTOZ ADABIYOT

Maqsud Asadov (O‘zbekiston). Navoiy ijodida so‘z, ma’no va tasvirdagi o‘ziga xosliklar.....	3
Almaz Ulvi (Ozarbayjon). Əlişir Nəvainin “Siracul-müslimin” əsərində islam ehkamlarının estetik qayə və şərhini.....	9
Veli Savaş Yelok (Turkiya). Osmanlı Sahası Şair Tezkirelerinde Alişir Nevâyî (Alişir Nevâyî in the Ottoman Poet Tezkires).....	25
Ergash Ochilov (O‘zbekiston). Navoiy va Berdaq.....	39
Dildora Abdullayeva (O‘zbekiston). Mumtoz dostonchilikda Hotami Toyi syujeti.....	46
Salomat Matkarimova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy an‘analari Avaz O‘tar ijodida.....	55
Mavlonberdi Suyunov (Tojikiston). Navoiyning Hofizga tatabbu‘larida uslubiy o‘ziga xosliklar.....	60
Sohiba Umarova (O‘zbekiston). Alisher Navoiyga izdoshlik va badiiy kamolot.....	71
Sofiya Jumayeva (O‘zbekiston). Navoiy ijodida raqamlar bilan bog‘liq ba‘zi qarashlar.....	77
Gulchehra Boltayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning Lutfiyga taxmisi xususida.....	82
Saboxon Jo‘raboyeva, Shoiraxon Asqarova (O‘zbekiston). Shavqiy ijodida Alisher Navoiy an‘analari.....	88

ALISHER NAVOIY ASARLARI POETIKASI

Qodirjon Ergashev (O‘zbekiston). Navoiyning uslubiy mahorati: novatorlik, bayon va tasvir uyg‘unligi.....	95
Nurboy Jabborov (O‘zbekiston). “Lison ut-tayr”da muallif konsepsiyasi talqini.....	102
Yashar Kosim (Ozarbayjon). “Fərhad və Şirin” dastaninin qəhrəmanlari Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında.....	111
Usmon Qobilov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy she‘riyati obraz-timsollar ko‘lami tadqiqiga doir.....	119
Sayfiddin Rafiddinov (O‘zbekiston). Navoiy ijodida saxovat tushunchasi.....	125

Burobiya Rajabova (O‘zbekiston). “Quyoshliq istasang kasbi kamol et”.....	140
Zilola Amonova, Maftuna To‘rayeva (O‘zbekiston). Navoiy she‘riyatida inson tana a‘zolarining qo‘llanishi xususida.....	150
Tohir Xo‘jayev (O‘zbekiston). Navoiy asarlarida inson umrining davrlar asosidagi talqini.....	155
Tojixon Sabitova (O‘zbekiston). “Lison ut-tayr” dostonida majoziy timsollar talqini.....	160
Durdona Zohidova, Shoiraxo‘jayeva (O‘zbekiston). “Nazm ul-javohir” ruboiylarining qofiya xususiyatlari.....	169
Gulchehra Xo‘janova (O‘zbekiston). “Mahbub ul-qulub”da huquqiy ong va adolat tushunchasi.....	177
Zulayho Rahmonova (O‘zbekiston). Yetti vodiy sayri.....	182
Zarif Quvonov (O‘zbekiston). Buyuk beshlikning islomiy-irfoniy mohiyati tadqiqi.....	197
Dilrabo Kazakbayeva (O‘zbekiston). Study of complex structural genres in the work of Alisher Navoi.....	202
Nafosat O‘roqova (O‘zbekiston). Navoiy lirikasida faunistik obrazlarning ramziy talqini.....	211
Munira Xudoyorova (O‘zbekiston). Navoiy ijodida fano talqinlari tadqiqi.....	217
Nigora Sharipova (O‘zbekiston). “Hayrat ul-abror” strukturasi munojotning o‘rni.....	222
Shahnoza Rahmonova (O‘zbekiston). “Nasoyim ul-muhabbat”da xos va avom talqini.....	228
Nafisa Raxmanova (O‘zbekiston). Shirin obrazining tarixiy asarlardagi talqini.....	232
Umida Otayarova (O‘zbekiston). “Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlarda tarixiy shaxslar obrazi.....	240
Farangis Abdulloyeva (O‘zbekiston). Navoiy she‘riyatida qish tasviri poetikasi.....	245
Mohigul Mavlonova (O‘zbekiston). Mehinbonu obrazi xususida.....	251
Nasiba Jo‘raqulova (O‘zbekiston). “Mahbub ul-qulub”dagi bir obraz xususida.....	256
Hamida Ashurova (O‘zbekiston). Navoiyning epik asarlarida Ayyub (a.s.) obrazi talqini.....	263
Sarvinoz Otaqulova (O‘zbekiston). Navoiy debochalarida faxriya.....	269
Gulfuza Madirimova (O‘zbekiston)“Mahbub ul-qulub”da nabiylar obrazi.....	272

Rayhonoy Yangiboeva (O‘zbekiston). “Kishiki istasakim, yetmagay malolat anga...”.....	278
Nozima Miravlatova (O‘zbekiston). “Sab’ai sayyor”dagi Axiy obrazi tahlili.....	284
Sarvinoz Jamolova (O‘zbekiston). “Mahbub ul-qulub”da ishq talqini.....	288

NAVOIYSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Baxtiyor Fayzulloyev (Tojikiston). Navoiyning tasavvufiy qarashlari professor Abdusalom Abduqodirov ilmiy talqinida.....	292
Suvon Meli (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning bilish falsafasiga doir.....	306
Nasima Qodirova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy tanqidchiligida uslub.....	311
Dilshoda Xasanova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy “Xamsa”si akademik Botirxon Valixo‘jayev talqinida.....	316
Maftuna Shomurodova (O‘zbekiston). Navoiyshunoslikda Sadridin Ayniyning o‘rni.....	323

ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI

Boqijon To‘xliyev, Ilyos Ismoilov (O‘zbekiston). Davlatshoh Samarqandiy va mintaqa adabiyoti manbashunosligi masalalari.....	331
Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston). Angliya kutubxonalaridagi Alisher Navoiy asarlari manbalari.....	341
Akrom Malikov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy matnlarini nazariy matnshunoslik aspektida o‘rganish muammolari.....	346
Dilnoza Rustamova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy toshbosma devonlarida debocha va kolofon matnlari.....	353
Hilola Shokirova (O‘zbekiston). XIX asrdagi Alisher Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozma nusxalari.....	358

ALISHER NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

Nargizaxon Umarova (O‘zbekiston). Turkiy tillarda ko‘ylak va ro‘mol so‘zlarining etimoni hamda Navoiy asarlarida qo‘llanilishi.....	370
--	-----

Xilola Abduraxmanova, Aziza Abduraimova (O‘zbekiston). Проблемы перевода произведений А.Навои на русский язык.....	376
Mumtozbeqim Abduolimova (O‘zbekiston). O‘xshatish qurilmalarining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	381

ALISHER NAVOIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

Marg‘uba Abdullayeva (O‘zbekiston). “Sab‘ai sayyor”da kosmogonik qarashlarning badiiy talqini.....	386
Maqsuda Jammato va (O‘zbekiston). “Layli va Majnun” dostonining rang-barang namunalari.....	395
Nasiba Sabirova, Maqsuda Karimova (O‘zbekiston). Navoiy ijodida folklor unsurlari.....	400

ALISHER NAVOIY VA ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI

Hamidulla Boltaboyev (O‘zbekiston). Alisher Navoiy haqida jadid adabiyotshunosligining ilk risolasi.....	403
Nusratullo Jumaxo‘ja (O‘zbekiston). Ilm va olimlik matlabi (XX asr yosh navoiyshunoslari faoliyatiga bir nazar).....	411
Gulbahor Ashurova (O‘zbekiston). Ayol shoirlar ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari.....	420
Zafar Mamatalimov (O‘zbekiston). Anvar Obidjon asarlarida Navoiy dahosi.....	428
Adolat Nuraliyeva (O‘zbekiston). “Farhod va Shirin” dostonidagi ramz va timsollarning o‘rgatilishi.....	433
Marvarid Nurbayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida ta‘lim va tarbiyaning mushtarakligi.....	440
Ra‘no Fayzullayeva (O‘zbekiston). Sirojiddin Sayyid ijodida Navoiy an‘analari.....	446

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA
ILMIY MEROSINI O‘RGANISH
MASALALARI**

№ 69

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2024-yil 7-fevral

Мухаррир: М. Сайфуллаев
Техник Мухаррир: Ф. Зокиров
Дизайнер: Б. Ҳайдаров

Toshkent 2024

Наш. литсензия № 189562
Нашрга чоп этишга рухсат этилди 23.01.2024 й.
Қоғоз бичими: 60x84 ¹/₁₆.
“Times New Roman” гарнитураси. Офсет босма.
Наш. б.т. 9.6. Ҳажм б.т. 10.
Адади: 300..

“ADAST POLIGRAF” МЧЖ босмаҳонасида чоп этилди.
Манзил: Тошкент, Янгиҳаёт тумани, Чортоқ МФЙ,
Чортоқ кўчаси, 91-уй. Тел: (77) 016-66-61